

## TALIM - TARBIYA JARAYONIDA KOMPLEKS LOYIHALASHTIRISHNING O'RNI.

**Sa'dullayeva Oydin Temur qizi**

*Guliston davlat universiteti Dorivor o'simliklar va Botanika ta'lim yo'nalishi  
2-kurs magistranti.*

Ta'lim va tarbiya jarayoni bir- biriga chambarchas bog'liq hamda bir - birini to'ldiruvchi tushinchadir. Ta'limni tarbiyadan aslo ajratib bo'lmaydi. Agar ta'lim tarbiyadan ajratib quyilsa, u ma'lumotlar saqlanadigan quticha, idish va yana qandaydir narsaga aylanib qoladi. Natijada bu ma'lumotlar jamiyat uchun kerakli tarzda xizmat qila olmaydi, ya'ni jamiyat uchun kerakli bo'lgan shaxsni tarbiyalashda ta'siri etarli bo'lmaydi. Shu sababli barcha ta'lim muassalarida ta'lim –tarbiyaning uzluksizligi tamoyiliga rioya etish lozimdir.

Hozirgi kunda bilim egallash jarayonini biz innovatsion texnologiyalarisiz tassavur qila olmaymiz. Innovatsiyalar dolzarb va muhim ahamiyatga ega bo'lib, tizimda shakllangan yangicha yondashuvdir. Pedagogik faoliyatda foydalanigan innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi shunchalik kengroq pedagogik tajriba o'tkazish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Pedagogik tajriba – sinov faloiyatning 3ta asosiy shaklini ajratish mumkin:

- 1) Xususiy tajriba
- 2) Tajriba - sinov ishi
- 3) O'qituvchining innovatsion faoliyati

Talim va tarbiyada innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:

- Muammoni tahlil asosida aniqlash .
- Mo'ljallanayotgan t'lim tizimini loyihalash.
- O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish.
- O'zgarishlarni amalga oshirish.

Boshqa ta'lim yo'nalishlar kabi biologiya ta'lim yo'nalishida ham pedagoglar ayni paytda innovatsion texnologiyalarni ta'lim - tarbiya jarayoniga kiritish orqali o'quv samaradorligi va sifatini oshirishni ko'zlamodalar. Bugungi axborot asrida ta'limda IT texnologiyalari o'quv jarayonini ajralmas qismiga aylanmoqda [1]. Internet olamida shu qadar ma'lumotlar ko'pki o'qituvchi o'quvchilarga ushbu ma'lumotlarni qanday saralashni, uning ishonchliligini va dolzarbligini baholashni o'rgatishi talab etiladi. "Pedagoglar uchun bugungi kun talabalarining samarali axborot foydalanuvchisi bo'lishlariga yordam beradigan ta'lim imkoniyatlarini loyihalash, shuningdek o'quv jarayonida tarqatiladigan kontentning maqsadli auditoriya tomonidan qabul qilinishini ta'minlash muhim ahamiyatga ega"dir.

Hozirgi kunda biologiya fanida qo'llanilgan va o'zining ijobiy natijalarini berayotgan zamonaviy modellardan biri o'quv mashg'ulotlarini kompleks loyihalashtirish hisoblanadi, chunki u qo'yilgan o'quv maqsadlariga erishishni kafolatlaydigan ta'lim berishni tashkil

etishning asoslaridan biri sanaladi [2]. Zamonaviy texnologiyalardan biri sanalgan web – kvset dan biologiya fanlarida foydalanishda pedogoglar yuqori natijalarga erishmoqda. Web – kvset bu veb yoki vebga asoslangan bilimni birlashtiradigan tushunchadir [3].

Guliston davlat universitetida 5140100 – biologiya bakalavriyat ta'lim yo'nalishidagi umumkasbiy fanlar blokiga tegishli Botanika fanini o'qtishda 2015-2018 yillarda innovatsion texnologiyalarni qo'llashda olib borilgan tajribalarda bir qancha ijobiy natijalarga erishilgan. Ya'ni ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi yuqoriligi aniqlangan. Tadqiqot jarayonida kuzatish, anketa so'rovi, tajriba - sinov natijalarini taxlil etish va ularni taqqoslash metodlaridan keng foydalanilgan.

Guliston davlat universitetida ishlab chiqilgan va ta'lim jarayonida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatgan kompleks loyixalashtirish modeli o'quv dasturlarida fanning mazmunida keltirilgan, talaba egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetentsiyalarni hisobga olgan holda o'quv materiallarni katta va kichik modullarga ajratishni talab qiladi.

Botanika fanining 1- moduli hisoblangan "O'simliklar anatomiyasi va morfologiyasi kursi " uchun 30 soat ma'ruza, 30 soat amaliy mashg'ulot va 60 soat mustaqil ta'lim uchun vaqt ajratilgan. Shundan "Gul " mavzusiga 4 soat ma'ruza, 4 soat amaliy mashg'ulot va 6 soat talaba mustaqil ishi rejalashtirilgan. Tasdiqlangan ishchi dastur va ajratilgan vaqtni hisobga olgan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning texnologik xaritalari tuzilgan. Universitetda ishlab chiqarilgan va amaliyotda sinab ko'rilgan texnologik xarita 5 bosqichdan iboratdir [4]. Unda

- Tayyorgarlik
- O'quv mashg'ulotini tashkil qilish
- Tayyorlangan axborotni etkazish
- Berilgan axborotni mustahkamlash
- O'quv mashg'ulotini yakunlash bosqichlariga ajratiladi.

Texnologik xaritada dastavval o'quv mashg'ulotning maqsadi aniqlanadi va indentiv o'quv maqsadlari belgilanadi, mavzudagi asosiy tushuncha va iboralar, dars shakli, foydalanilgan metod va usullar, kerakli jihoz va vositalar aniqlanadi. Bu ishlar o'qituvchi tomonidan darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida bajariladi. Qolgan bosqichlar bevosita mashg'ulot davomida amalga oshiriladi. Har bir bosqichda amalga oshiriladigan ishlar, sarflanadigan vaqt va mashg'ulotlar jarayonida beriladigan savollar qisqacha ko'rsatiladi.

Biologiyani o'qitishda modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan qismlarga, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirilishlari uchun mustaqil ish topshiriqlari tuziladi. Shu talaba mustaqil ish topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o'tkaziladi va baholanadi. [5]

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib shuni xulosa qilish mumkinki, biologiya fanlarida innovatsion texnologiyaga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish yuqori samara beradi. Ayniqsa web – kvset dan foydalanish talabalarda internet manbalaridan keng va o'rinli foydalanishga zamin yaratadi, internet tizimida mavjud bo'lgan axborotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllanishiga xizmat qiladi.



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karshibaev X.K. Biologiya fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish masalalari // Ta'lim muammolari, 2013. №4.- B.39-44.
2. Qarshiboyev X.Q., Samatov G`B., Qarshiboyev J. Zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalariga asoslangan ta`lim tizimida o`quv mashg`ulotlarini kompleks loyixalashtirish va mustaqil talimni joriy etish masalalari.-Guliston, 2003. -18 b.
3. X.Q.Qarshiboyev . “Biologiya fanlarida Web –kvset texnologiyasidan foydalanish” – GuLDU, 2019.- 49 b.
4. Qarshiboyev X., Suvonov O. Fanlardan mavzular bo'yicha o'quv mashg'ulotlarining texnologik xaritasini tuzish bo'yicha tavsiyanoma.- Guliston, 2007. - 12 b.
5. Karshibaev X.K. Biologiya asoslari fanida interfaol metodlardan samarali foydalanish.// Universitet axborotnomasi, 2017.- № 4.- B. 54-58.